



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QO'YLARNING TIRIK VAZNI BO'YICHA IRSIY DIFFERENSIYASI VA SELEKSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Seytmusayeva Z.A., Sultamuratova H.M.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Dunyoda qo'ychilik rivojlangan 45 dan ortiq davlatlarda qo'ylar genefondini genetik-irsiy imkoniyotlaridan oqilana foydalanib, naslchilik ishlarini to'g'ri tashkil qilish asosida go'sht, sut va sifatli teri ishlab chiqarish, jun yo'nalishidagi seleksion tadqiqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga qaraganda «...bugungi kunda dunyo miqyosida qorako'l zotlar qo'ylar soni 48-49 mln boshni tashkil etib, ular asosan Afg'oniston, O'zbekiston, Janubiy Afrika respublikasi, Namibiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Botsvana va Eron kabi 40 ga yaqin davlatlarda» ko'paytirib kelinmoqda. Bu borada ekstremal cho'l hududlari sharoitida ko'paytirishga moslashgan qorako'l qo'ylarining turli rang, tus, rangbaranglik va gul hususiyatlari bo'yicha eksportbop teri mahsulotlarini ko'paytirish borasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar bugungi kunning muhim dolzarb masalasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bozorida turli rangbaranglikdagi qimmatli qoraqalpoq sur qorako'l teri mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi yetishtiriladigan teri mahsulotlari sifatini oshirishni taqozo etmoqda. Bu borada yetakchi seleksioner olimlar qorako'l qo'ylarining o'ziga hos boy genofondini o'rganib chiqish, barcha rang, rangbaranglik, gul tiplari bo'yicha ma'lum bir guruhlariga ajratish va ularni urchitish borasida ma'lum darajadagi tadqiqotlar olib bormoqdalar. MDH davlatlarida qorako'l qo'ylar bosh sonini ko'paytirish bilan bir qatorda, qo'ybop cho'l o'simliklari turlarini tahliliy o'rganish asosida foydali cho'l o'simliklari urug'larini tayyorlash va ularni ekishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda qorako'l qo'ylar genefondini kengaytirish va ular asosida seleksiya va urchitish ishlarini olib borish orqali turli mahsuldor zot tiplarini yaratish seleksioner olimlar oldiga qo'yilgan muhim masala hisoblanib, ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi Qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylarini samarali seleksiyalash va urchitish asosida ularning mahsuldorlik va irsiy potensialidan unumli foydalanish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat:

tirik vazn ko'rsatkichini o'rganish orqali qo'ylarni seleksiyalash, urchitish va irsiyatini sinash;

rangbaranglik bo'yicha differensiyalangan juftlash sharoitida avlodlar gul va jun-tola sifati ko'rsatkichlarining genotipga bog'liq holda namoyon bo'lish darajalarini o'rganish;

Tadqiqot obyekti sifatida turli rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako'l qo'ylari, qo'chqorlari, qo'zilar tanlangan.

Tadqiqot predmeti qoraqalpoq sur qo'ylarini samarali seleksiyalash va urchitishda ularning imkoniyatlarini to'laroq yuzaga chiqarish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Qorako'l qo'ylarining og'ir cho'l sharoitida o'sish va rivojlanishini jadallashtirish muhim bo'lib, ayniqsa bu muammo o'ta og'ir tabiiy-iqlim va yaylov-ozuqa sharoiti bilan tavsiflovchi shimoliy Qoraqalpog'iston hududida dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa qo'ylarning bo'g'ozlik davrida yaxshi sharoit yaratish ularning naslidan foydalanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'pchilik tadqiqotlarda aniqlangan.

Qayd etilganlar nuqtai nazaridan tadqiqotlarda foydalanilgan qo'ylarda o'sish va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari ularning gul tiplari va rangbarangliklari miqyosida izlanishlar olib borildi. Ma'lumotlar 1 va 2-jadvallarda umumlashtirilgan.

**Tajribadagi qo'ylarning gul tiplari miqyosida tug'im
oldi tirik vazni ko'rsatkichlari**

Gul tipi	n	Tirik vazn, kg	
		($\bar{X} \pm S_x$)	Cv
Yarim doira qalamgul	25	$33,58 \pm 0,234 x$	3,41
Qovurg'asimon	25	$32,78 \pm 0,218 x$	3,29
Yassi	25	$33,06 \pm 0,352 x$	5,38
O'sikgul	25	$35,48 \pm 0,295$	3,82

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajribada ishtirok etgan qo'ylar gul tiplariga ko'ra bir-biridan ma'lum darajada farq qilgan. Eng yuqori natija o'sikgul tipli qo'ylarda aniqlangan bo'lib, ularning tug'im oldi tirik vazni o'rtacha $35,48 \pm 0,295$ kg ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich yarim doira qalamgul tipli qo'ylarga nisbatan 1,9 kg, qovurg'asimon tipli qo'ylarga nisbatan 2,7 kg, va yassi tipli qo'ylarga nisbatan 2,4 kg yuqori ekanligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, gul tiplari bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti (Cv) 3,29–5,38 % orasida bo'lib, bu qo'ylar guruhidagi vazn ko'rsatkichlari o'rta darajada barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'sikgul tipli qo'ylar fiziologik jihatdan yaxshi rivojlangan, genetik salohiyati yuqori tip sifatida tavsiflanadi. Ular tanlov-seleksiya ishlarida asosiy toifa sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Tajribadagi qo'ylarning rangbarangliklar miqyosida tirik vazn ko'rsatkichlari

Rangbaranglik	n	Tirik vazn, kg	
		($\bar{X} \pm S_x$)	Cv
Shamchiroqgul	25	$34,21 \pm 0,452 x$	6,69
O'rikgul	25	$34,88 \pm 0,386 x$	5,53
Po'lati	25	$33,04 \pm 0,338$	5,14
Qamar	25	$35,26 \pm 0,327 x$	4,63

Tajribada turli rangbaranglikdagi qo'ylar orasida ham tirik vazn bo'yicha sezilarli farqlar kuzatilgan. Eng yuqori ko'rsatkich qamar rangli qo'ylarda bo'lib, ularning vazni o'rtacha $35,26 \pm 0,327$ kg ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich po'lati rangli qo'ylarga nisbatan 2,22 kg yuqori bo'lib, statistik ishonchli darajada ($P < 0,05-0,001$) ustun ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, o'rikgul ($34,88 \pm 0,386$ kg) va shamchiroqgul ($34,21 \pm 0,452$ kg) rangli qo'ylar ham yuqori natija ko'rsatgan, ularning vazni po'lati rangli qo'ylarga nisbatan mos ravishda 1,84 va 1,17 kg ortiq bo'lgan.

Variatsiya koeffitsiyenti 4,63–6,69 % chegarasida bo'lib, bu qo'ylarning vazn ko'rsatkichlari nisbatan barqaror ekanligini va ularda irsiy belgilarning uzatilishi mustahkamligini ko'rsatadi.

Natijalardan xulosa qilish mumkinki, qamar, o'rikgul va shamchiroqgul rangbaranglikdagi qo'ylar irsiy jihatdan yaxshi o'sish salohiyatiga ega bo'lib, ularni tirik vazn ko'rsatkichi bo'yicha seleksion tanlovda ustuvor tip sifatida tanlash maqsadga muvofiq.

Xulosa. O'sikgul tipidagi qo'ylar bo'g'ozlikning oxirgi davrida eng yuqori tirik vaznga ega bo'lib, ularning ustunligi statistik jihatdan ishonchli darajada ($P < 0,001$) aniqlangan.

Rangbarangliklar orasida qamar, o'rikgul va shamchiroqgul qo'ylar yuqori o'sish ko'rsatkichlari bilan ajralib turgan.

Tirik vazn bo'yicha olingan natijalar seleksiya jarayonida tiplarga xos irsiy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юсупов С ва бошқалар. Қорақўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш бўйича қўлланма. – Тошкент, 2015. – Б.31.
2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. - С.256.
3. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузоирова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В E3S Web of Conferences (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
4. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. Ветеринария, (5), 29-32.
5. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. Овцы, козы, шерстяное дело, (1), 24-26.
6. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. Экологический Вестник Северного Кавказа, 15(4), 91-93.
7. Shakarboev, E., Safarova, F., Azimov, D., & Urimbetov, A. (2015). FAUNA, ECOLOGY AND TAXONOMY OF CYPRINIFORMES FISH HELMINTHS IN UZBEKISTAN. The Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences, 5(1), 88.
8. Рахимов, М. А., Турдалиев, А. Т., & Мадрахимов, Ш. Н. (2022). ПРОИЗВОДСТВО ПОЛНОЦЕННОГО МЯСА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПОРОДНЫХ РЕСУРСОВ. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ПРОДУКТИВНОГО И НЕПРОДУКТИВНОГО ЖИВОТНОВОДСТВА (pp. 184-189).
9. Жавхаров, О. З., Мадрахимов, Ш. Н., & Собиров, И. А. (2024). СОСТОЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЕВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (2), 282-287.
10. Базарон, Б. З., Шкуратова, Г. М., & Дашинимасев, С. М. (2018). Биохимические показатели крови лошадей забайкальской породы. Ветеринария, (7), 53-56.
11. Мадрахимов, Ш. Н., & Худайберганова, Х. (2024). Характеристики покрытия кормов живой массой быков породы монбельярд разных генотипов. In Актуальные проблемы, перспективные планы и инновационные решения в селекции, семеноводстве и агротехнологиях сельскохозяйственных культур: материалы Международной научно-практической конференции, 26 сентября 2024 г (p. 388).
12. Мадрахимов, Ш. Н., Мамадов, Ф. К., & Гулбутаев, Б. Х. (2024). Турли селекцияга мансуб голштин зотли сигирларнинг сут маҳсулдорлиги. Science and innovation, 3(Special Issue 40), 255-257.
13. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асослари. Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, 72.

14. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
15. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, (22), 1.
16. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

QORAMOLCHILIK SOHASIDA SUT ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR

Sultonov Yu.F., Utegenov Sh.I., Orinbaev B.P.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Agrar sektorning eksport salohiyatini oshirish ham muhim strategik vazifalardan hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va chorvachilik sohasida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashlar quyidagi qonun va qarorlar asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-sonli "Chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dastur to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-sonli "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kungi PF-15-sonli "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ushbu qaror va farmonlar fermer xo'jaliklarining samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va hayvonlarning sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, Shumanay tumanida va butun Qoraqalpog'iston Respublikasida sut va sut mahsulotlariga talab yuqori. - [https://lex.uz/docs/-5858728?utm_source, https://lex.uz/docs/-7353670?utm_source, https://lex.uz/docs/-7353670?utm_source]

Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumanidagi "Sultan Bereketli Sharwa" fermer xo'jaligi 2020-yili M.Yusupov rahbarligida tashkil qilingan. Fermer xo'jalik Shumanay tumani Qarabayli makan fuqoralari yig'ini hududida joylashgan bo'lib, 2020-yilda fermer xo'jalikga 27 bosh naslli simmental qoramollari olib kelingan bo'lib, hozirgi vaqtda jami 35 bosh naslli qoramol va 50 bosh mahalliy qoramol boqilmoqda. Umumiy yer maydoni 26,4 gektarni tashkil etadi.

Shundan: ozuqa yer maydoni – 22,2 gektar, yaylov maydoni – 1,5 gektar, ishchilar soni – 2 nafar, texnikalar soni – 4 ta. Bugungi kunda xo'jalikda jami 85 bosh qoramol mavjud. Paxta poyasi – 30-40 tonna, pres beda – 4,5-5 tonna, bug'doy presi – 2-3,5 tonna, kepak – 2 tonna, makkajo'xori poyasi – 2-3 ming bog'lam, mosh poyasi – 1 ming bog'lamlik ozuqa bazasi qishdan eson-omon chiqishga yig'ib qo'yilgan.

Shumanay tumaning chorvachilik sohasida ilg'or texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy qilish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga ehtiyoj mavjud. Malakali mutaxassislarning yetishmasligi, fermerlar va qoramol parvarishlovchilar orasida zamonaviy sut yetishtirish usullariga oid bilimlarning yetarli emasligi, Shumanay tumanida qoramollarning sut